

**O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILAR ORASIDA  
KUZATILAYOTGAN MOBIL QARAMLIKNI OLDINI OLISHNING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

:

***Qaxxorov Sa'dulla Bobirbek o'g'li***

*Andijon viloyati Oltinko'l tumani 8-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

**ANNOTATSIYA:** *Biz telefonsiz bir kunimizni ham tasavvur qila olmaymiz. Bugungi texnologiyalar shu darajaga yetdiki, mobil telefon qo'ng'iroq, инстаграм, фэйсбук, e-mail, Internet orqali bog'lanishning global vositasiga aylandi. Bundan tashqari telefonda: foto-video kamera, o'yinlar, dasturlar (programmalar), yon daftarcha, rejalashtiruvchi bo'lim, soat, matnli, javdalli tahrirlar, video, MP3 pleyerlar, radio, televidiniye kabi va yana bir qator qo'shimcha funksiyalari bor. Ammo boshqa tomondan mobil telefon erkinlikni to'sib qo'yadi, har bir daqiqada sizga qo'ng'iroq qilishadi va sizning rejalaringsiz tubdan o'zgaradi.*

**Kalit so'zlar:** *mobil telefon, инстаграм, фэйсбук, e-mail, Internet, tobe'lik.*

**KIRISH** Bolalar va o'smirlarda telefon tobe'ligi ogohlikni talab etmoqda, chunki darsda o'qish bilan band bo'lmasdan, ular telefonda o'yin o'ynaydilar, gaplashadilar, musiqa tinglaydilar, shu bilan birga tanqid ostida bo'lgan rasm va videolavxalar tomosha qiladilar. Olimlar uyali telefonning inson fiziologik sog'lig'iga ta'siri borasida izlanishlar olib birishmoqda, lekin unga tobe'lik aniqdir.

Adabiyotlar taxlili. Tobe'lik ( addiksiya ) – ob'yektlar orasidagi munosabat, bunda bir ob'yekt ikkinchisiga bo'ysunadi, tobe' bo'ladi.

Addiksiyaning 3 turi mavjud bo'lib bular:

- Kimyoviy addiksiyalar ( giyohvandlik, toksikomanlik, alkogolizm )
- Biokimyoviy (anoreksiya, bulemiya )

- Nokimyoviy (ong osti) – mobil tobe'lik shunga taalluqlidir.

Nokimyoviy addiksiyalarga to'xtalib o'tamiz, chunki mobil tobe'lik ayni shu guruhdadir, mobil tobe'lik boshqa nokimyoviy addiksiyalar turlariga juda o'xshaydi, chunki u o'sha prinsip asosida "ishlaydi". Additiv harakatning nokimyoviy shakli insonning psixologik himoyalovchi mexanizmlari bilan bog'liqdir. Inson qo'llayotgan himoya har doim qandaydir kelishmovchiliklar, muammolar, noqulay vaziyatlarga "javob" bo'ladi, himoya tartibli xarakterga ega bo'ladi, shuningdek insonni harakati modellari

aniq ishlanadi. Masalan, mobil tobe'likda inson barcha noqulay vaziyatlarga bir xildek qaraydi (masalan, telefonni olib tugmalarni maqsadsiz bosa boshlaydi). Umuman nokimyoviy addiksiyalar barcha turlari bir-biri bilan bog'liqligi shundaki, agarda "o'yinchog'idan" ayirishsa (komp'yuter, telefon, ish, magazin xaridi) unda emotsional, so'ng fizik noqulaylik tez rivojlana boshlaydi va odam o'ziga joy topa olmaydi.

#### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

Odat – avval paydo bo'lgan malakani (mahoratni) saqlash va osonlik bilan tiklash qobiliyatidir. Ongli mavjudotlarda odat faol xarakterga ega: qandaydir o'zgarishni to'xtovsizligi yoki qaytarilishi ushbu o'zgarishni mustaqil ravishda tiklash ishtiyoqini yaratadi; jismoniy odat bo'lishi tez-tez mushaklar qisqarishi bilan bog'liq; aqliy odat-qaytariladigan assotsiatsiyalar bilan; axloqiy odat-qaytariladigan ishlar bilan bog'liqdir. Odatiy ishlar ongsiz bo'lib qoladi va ular haqida qancha kam o'ylasak, shuncha tez amalga oshiriladi.

Mobil tobe'lik – ushbu muammo ilk bor bir necha yil oldin ko'tarilgan edi, ammo hozirda rivojlangan mamlakatlarda 10 ta odamdan 7 tasida mobil telefon mavjudligi ushbu muammoni haqiqiy epidemiyaga aylantirdi. Mobil aloqada odat va tobe'likni ajratish qiyin, ammo ajratish mumkin, balki kerakdir, zarurdir.

Mobil tobe'lik – bu inson xolati, ushbu xolatda telefon ibodat predmetiga aylanadi, inson o'ylamasdan qo'ng'iroq qiladi, o'zining harakatini anglamaydi, yoki sababini tushuntira olmaydi. Mobil tobe'lik, internetga tobe'lik kabidir. Bu

jonli muloqotdan qo'rqish va real dunyoda insonda ijobiy emotsiyalar qo'zg'atadigan biror bir narsa yo'qligi va inson ijobiy emotsiyalarni Internet orqali yoki telefon orqali olishga harakat qiladi.

Alkogol, tamaki, shirinlik yoki telefonga bo'lgan tobe'lik sabablari bir hildir. Inson o'z lazzatlarini tashqi dunyodagi biror-bir narsa bilan "bog'lamoqchi" bo'ladi. Virtual muloqotga kirib ketgan odamlar bolalikdan jonli his-tuyg'ular va muloqotni qadrlashga o'rgatilmaganlar.

Buyuk Britaniya olimlari mobil telefon egalarini 3 tipga ajrtishadi:

"Kiborglar" – telefonni o'zlarini davomlari, tanalarining bir qismi deb bilishadi va usiz yashay olmaydilar.

"Protezlanganlar" – bu umuman olganda "telefon"siz yashay oladigan, lekin bunday holatda o'zlarini noqulay his etadiganlar.

"Bog'lanmaganlar" – bular uchun telefon qong'iroqlarga ishlatiladigan aloqa vositasi xolos.

#### **Mobil tobe'lik borligini qanday bilish mumkin.**

- Doim telefonga intilish. Noqulay vaziyat vujudga kelganda ( kutilmagan suhbatdosh paydo bo'lishi, yoqtirmagan shaxs, suhbatda nozik mavzuda to'xtalib o'tish ) inson telefon bilan atrofdagi dunyodan berkinadi. U telefonni shunchaki hisobni tekshirish, SMSni o'qish yoki yuborish, tugmalarni bosish, vaqtni ko'rish uchun oladi. Ushbu barcha harakatlar insonning noqulay vaziyatga javobidir. Inson muammoning yechimini topish o'rniga undan qochadi .

- Tez- tez telefonni o'zgartirish. Bugungi kunda telefonni qo'lqop o'zgartirgandan ko'ra tezroq almashtiradigan insonlarni kuzatishimiz mumkin.

Insonga ma'qul bo'lgan telefonni o'rnini xuddi shunday, faqat bir-ikki yangi funksiyali telefon egallashi mumkin, buning uchun odam hamma narsaga tayyor bo'ladi va shu telefonni sotib oladi. Aloqa uchun telefondan foydalanadigan inson uning yangi rusumlarini izlamaydi, agar unga mavjud bo'lgan funksiyalar yetarli bo'lsa, aksincha telefonga tobe' bo'lgan odam yangisini izlaydi.

- Qo'ng'iroq uchun qo'ngiroq. Agar "shunchaki" keraksiz qo'ng'iroqlar soni muhim va kerakli bo'lgan qo'ng'iroqlar sonidan ko'proq bo'lsa bu yaxshi emas.

- SMS uchun SMS. Amalda "qo'ng'iroq uchun qo'ng'iroq" ga o'xshaydi, inson o'n metr narida turgan do'stiga qo'ng'iroq qilishi mumkin (yoniga borish osonroq bo'lsa ham). Ayrim odamlar og'zaki suhbatdan ko'ra SMS orqali muloqot qilishni afzal ko'rishadi.

- "Telefonlar" va aloqa haqida suhbatlar. Tobe' odam mavzuni o'zi "sevgan" mavzuga aylantiradi, telefon rusumlari, ta'rif rejalari mobil madaniyatning boshqa belgilari haqida baxslashishdan zavq oladi.

### **Natijalar va muhokama.**

Psixologlarda "Mobil tobe'lik", "SMS – kasallik" degan atamalar paydo bo'ldi. Chet elda bunga jiddiy e'tibor berilmoqda va tashxislar qo'yib shifoxonalarda davolashmoqda.

Mobil tobe'lik – inson telefonni har joyda o'zi bilan olib yuradi, telefon quvvati tugab qolsa yoki sinsa asabiylashadi. U yangi telefonni sotib ololmaslikni tasavvur ham qila olmaydi, u o'z telefoniga yangi chaqiruv qo'ng'iroqlari va o'yinlarni o'tkazib oladi. Telefonni o'z jismining bir bo'lagi deb hisoblaydi va usiz o'zini to'la to'kis deb o'ylamaydi.

SMS – tobe'lik - "tobe' inson" qo'ng'iroq qilish, gaplashish oson va arzon bo'lsa ham, bir kunda yuztacha ma'lumotni sms qilib yozib yuboradi.

Yangi axborotga o'chlik – inson yangi axborotni qabul qilishga doim tayyor turadi. Har daqiqa elektron pochta yoki telefonni tekshiradi. Miya bunday ko'p ma'lumotni qabul qilib, undan eng muhimini ajratib va kerak bo'lmaganini unuta olmaydi. Natijada u bunday "narkotik"ka tushib qoladi va yangisini talab qiladi.

Statistikaga ko'ra AQShda har ikkinchi o'quvchida mobil telefon bor va qo'ng'iroqlarga kuniga bir soatdan kam bo'lmagan vaqtini sarflashadi.

**Xulosa.** Shunday bo'lsa ham ko'pgina Amerika olimlarini mobil telefon orqali suhbatlar shaxsiy muloqotni o'rnini egallashi bezovta qilmoqda.

Ko'pchiligi shuni ta'kidlaydiki, bu o'smirlarning ijtimoiy yakkalanishini kuchaytiradi, ushbu yoshda bu noma'qul bo'ladi.

Shunday qilib, mobil tobelik zamonaviy psixologiya fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Бережковская Е. Мобильная зависимость //Школьный психолог/– 2006. - №5.  
– с. 2-7 3.
2. Бурдыга В.А. Мобильная зависимость – что это такое и с чем её «едят»//Журнал Самиздат 24.05.07
3. Инджиев А. Мобильник. Любовь или опасная связь?/ А. Инджиев. – М.: Вектор, 2007.
4. Корягина О.П. Проблемы мобильной зависимости и причины их возникновения // Вопросы психологии. – 2006. - №1. – с.14-19 7.
5. Нишанова, З. Т., & Худоёрова, М. (2017). ПРЕДОСТАВЛЕНИЕ НАДЛЕЖАЩЕЙ ИНДИВИДУАЛИЗИРОВАННОЙ ПОДДЕРЖКИ ДЕТЯМ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 26, pp. 60-62). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.